

**BUGUNGI KUNDA LOGOPEDIYA, UNING ALOHIDA TA'LIMGA EHTIYOJI
BO'LGAN BOLALAR UCHUN SAMARASI**

Abdurafikova Dildora Abduvoxiidovna

Toshkent viloyati Ohangaron tumani

*7-alohida ta'limga ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar
uchun ixtisoslashirilgan maktab logoped o'qituvchisi*

Annotatsiya: *ushbu ilmiy maqolada bugungi kunda mamlakatimizda logopediya sohasi, uning alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun samarasi haqida yoritilgan.*

Ushbu maqolani yozishdan maqsad: *logopediya sohasi, uning alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun samarasini ta'kidlab o'tish.*

Natija: *logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish qoidalari ko'rsatiladi.*

Kalit so'zlar: *logopediya, nuqsonli, alohida ta'limga ehtiyoj, bolalar, e'tibor...*

**SPEECH THERAPY TODAY, ITS EFFECTIVENESS FOR CHILDREN WITH
SPECIAL EDUCATIONAL NEEDS**

Abdurafikova Dildora Abduvokhidovna

Ohangaron district, Tashkent region

*7. Children with special educational needs
speech therapist at a specialized school for*

Abstract: *this scientific article describes the field of speech therapy in our country today, its effectiveness for children with special educational needs.*

The purpose of writing this article is *to highlight the field of speech therapy and its effectiveness for children with special educational needs.*

Result: *the main goal of speech therapy is to show the rules for developing a scientifically based system of teaching, educating and re-educating people with speech defects.*

Key words: *speech therapy, disabled, need for special education, children, attention...*

**ЛОГОПЕДИЯ СЕГОДНЯ, ЕЕ ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДЛЯ ДЕТЕЙ С ОСОБЫМИ
ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫМИ ПОТРЕБНОСТЯМИ.**

Абдурафикова Дилдора Абдувохидовна

Охангаронский район Ташкентской области.

*7. Дети с особыми образовательными потребностями
логопед в специализированной школе для*

Аннотация: в данной научной статье описывается сфера логопедической деятельности в нашей стране сегодня, ее эффективность для детей с особыми образовательными потребностями.

Цель написания данной статьи – осветить сферу логопедии и ее эффективность для детей с особыми образовательными потребностями.

Результат: основная цель логопеда – показать правила разработки научно обоснованной системы обучения, воспитания и перевоспитания людей с дефектами речи.

Ключевые слова: логопед, инвалидность, потребность в специальном образовании, дети, внимание...

Barchamizga ayonki, logopediyaning asosiy maqsadi nutqida nuqsoni bor shaxslarni o'qitish, tarbiyalash va qayta tarbiyalashning ilmiy asoslangan tizimini ishlab chiqish, shuningdek, nutq nuqsonining oldini olishdan iboratdir. Logopediya fan tarmog'i, nutqdagi kamchilik (duduqlik, til rivojlanmaganligi, o'qish va yozuvdagi nuqson va boshqalar) sabablari, ularning oldini olish, tuzatish yo'llarini hamda nutq faoliyati buzilishi mexanizmlari, alomatlarini maxsus ta'lim va tarbiya vositasida o'rganadi. Logopediya fan sifatida katta nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lib, u tilning, nutqning ijtimoiy mohiyati, bolaning talaffuzi, leksik-grammatik tuzumi, tafakkuri va butun ruhiy faoliyati uzviy bog'liqligi bilan belgilanadi. Logopediyaning asosiy

vazifalari esa, nutq buzilishining turli shakllarida nutq faoliyati ontogenezini o'rganish, nutq buzilishlarining keng tarqalganligi, kelib chiqish sabablari, mexanizmlari, tuzilishi, alomatlari va darajalarini aniqlash; nutqiy faoliyati buzilgan bolalarning o'z-o'zidan va biror maqsadga qaratilgan rivojlanish dinamikasini, shuningdek, nutqiy zaiflikni ularning shaxs sifatida yetishuviga, ruhiy rivojlanishiga, turli ko'rinishdagi



faoliyatlarini namoyon qilishga, o'zlarini tutishlariga ta'sirini aniqlash; rivojlanishda turli xil farqlar bo'lgan bolalarda (eshitish, ko'rish, fikrlash qobiliyati hamda tayanch-harakat apparatining buzilishi hollarida) nutqning shakllanishi va buzilishlari xususiyatlarini o'rganish; nutq buzilishlarining pedagogik diagnostikasi metodlarini ishlab chiqish; nutq buzilishlarini tartibga solish; nutq buzilishini bartaraf etish tamoyillari, differensiyalashgan metod va vositalarini ishlab chiqish; nutq buzilishining oldini olish metodlarini takomillashtirish; logopedik yordamni tashkil etish masalalarini ishlab chiqish. Logopediyaning yuqorida ko'rsatilgan vazifalarida uning nazariy va amaliy yo'nalishlari belgilab berilgan.

Logopediya nazariy yo'nalishi nutqdagi buzilishlarni o'rganish, uning sabablarini aniqlash, oldini olish va tuzatishning ilmiy asoslangan metodlarini ishlab chiqish, amaliy yo'nalishi esa ana shu metodlarni tezroq tatbiq etib, mazkur nuqsonlar va ularni keltirib

chiqaradigan sabablarni bartaraf etishdan iborat. Logopediyaning nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

Alohida ta'limga ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalar uchun har tomonlama ta'sir ko'rsatish, nutq buzilishini bartaraf etish va oldini olish bilan shug'ullanish uchun nutqdagi nuqsonlarning belgilarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibidagi nutqiy va nutqsiz belgilar munosabatlarini bilish kerak. Bu logopediyaning boshqa fanlar bilan bo'ladigan aloqasini belgilaydi. Tizimlar ichidagi va tizimlararo aloqalar bor.

Tizim ichidagi aloqalarga pedagogika hamda maxsus pedagogikaning turli sohaları: surdopedagogika, tiflopedagogika, oligofrenpedagogika, umumiy va maxsus psixologiya bilan bog'langan aloqalari kiradi. Tizimlararo aloqalarga esa tibbiy-biologik va tilshunoslik fanlari o'rtasidagi aloqalar kiradi. Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada tashkil etilishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning qurilishi va harakatga kelishi haqidagi bilimlardan foydalanadi. Nutq buzilishi mexanizmlarini tushunish tuzatish jarayoni qonuniyatlarini aniqlash uchun oliy ruhiy funksiyalarning dinamik lokalizatsiyalanishi to'g'risidagi, nutqning ongda shakllanishi borasidagi bilimlarni egallash kerak bo'ladi. Nutq murakkab funksional jarayondir. Uning asosida muloqot jarayonidagi til belgisi tartiblaridan qo'llanish yotadi. Tilning murakkab tizimi uzoq muddatli ijtimoiy-tarixiy rivojlanish mahsuli bo'lib, u bola tomonidan nisbatan qisqa muddatlarda o'zlashtirib olinadi. Nutqiy tizim bosh miya a'zolarining faoliyatiga asoslanadi. Ulardan har biri nutq faoliyatining o'ziga xos vazifasini bajaradi. Nutq faoliyati barcha bloklarning birgalikda ishlashi natijasida vujudga keladi. Shu bilan birga har bir blok nutq jarayonida alohida, maxsus o'ziga xos xususiyati bilan ishtirok etadi.



Nutqning akustik belgilarini ajratib ko'rsatish va differensiyalash nutqeshitish analizatori kortikal apparatlarning analitik-sintetik faoliyati bilan ta'minlanadi. Bunga miya qobig'i markaziy va old m otor quyi bo'linmalari sohasi bilan bog'liq bo'lgan bosh miya qobig'i (Vernike doirasi)ning so'l yuqori ikkilamchi qismlari kiradi. Logopediyaning ahamiyati esa bolaning nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etib, uning har tomonlama barkamol rivojlanishini

ta’minlashdan iborat. Logopediya nutq buzilishini o‘rganish va tu-zatishda nutq bilan fikrning o‘zaro bog‘liqligi haqidagi, bola rivojlanishida umumiy va maxsus qonuniyatlarning o‘zaro munosabati to‘g‘risidagi nazariy qoidalarga, nutq va faoliyatning hamohang rivojlanishi hamda ruhiy kamolotga erishishning harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi nazariyaga tayanadi. Logopediya umumiy anatomiya va fiziologiya, nutq mexanizmlari, nutq jarayonining bosh miyada sodir bo‘lishi haqidagi, nutq faoliyatida ishtirok etadigan analizatorlarning tuzilishi va harakatga kelishi to‘g‘risidagi bilimlardan foydalanadi.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlash joizki, nutqdagi nuqsonlarning alomatlarini, ularning etiologiyasi, mexanizmlari, nutq faoliyati buzilishi tarkibida nutqiy alomat bilan nutqsiz alomatning munosabatini bilish uchun Logopediya boshqa fanlar bilan hamkorlikda ish yuritadi. Jumladan, u tilshunoslik, otorinolarologiya, psixolingvistika, umumiy va maxsus psixologiya, psixodiagnostika, nevropatologiya, psixopatologiya, oligofreniya klinikasi, pediatriya bilan uzviy aloqada ishlaydi. Masalan, nutq va eshitish a’zolarining patologiyasi nutqdagi buzilish etiologiyasini aniqlashdan tashqari tibbiy ta’sir vositasida bo‘ladigan logopedik ishlarni to‘g‘ri qo‘shib olib borish uchun ham imkon beradi. O‘zbekistonda yordamchi maktablar, bolalar poliklinikalari, bolalar bog‘chalari va boshqa muassasalarda logopedik yordam ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, nutqida nuqsoni bor bolalar uchun alohida bog‘chalar, maxsus maktablar mavjud. Zero, bugungi kunda logopediya, uning alohida ta’limga ta’limga ehtiyoji bo‘lgan bolalar uchun samarasi fikrimizning yaqqol dalilidir.

ADABIYOTLAR:

1. Logopediya (L. Mo‘minova, M. Ayupova). – T., 1993-yil
2. Shomaxmudova R. Sh. M o‘minova L. Bolalar nutqidagi nuqsonlar va ularni bartaraf etish. – T., 1994-yil
3. Mo‘minova L.R. Tutilib gapiruvchi o‘smirlar uchun qo‘llanma. "O‘qituvchi". – T., 1980-yil.